




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12 (62) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (62)

2023

ноябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

UDC 613.5; 614.72; 614.78; 614.79

SELITEB HUDUDINI KO`KALAMZORLASHTIRISHGA BO`LGAN ASOSIY
YONDASHUVLAR

¹Iskandarov Aziz Baxromovich <https://orcid.org/0000-0001-7386-6620>

²Xayitova Shaxnoza Inatullayevna <https://orcid.org/0009-0003-7637-7832>

¹Central Asian Medical University, O`zbekiston Respublikasi, Farg`ona shahar, Burhoniddin Margiloniy ko`chasi tel 998(95) 485-00-70 E-mail info@camuf.uz

²Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Termiz filiali O`zbekiston Respublikasi, Temiz shahri, Islom Karimov ko`chasi 64-uy tel 998(55) 452-55-86 E-mail info@ttatf.uz

✓ *Rezyume*

Shaharlarning ko`rkam bo`lishi nafaqat undagi binolar va me`morchilik ansanblari bilan balki hududning ko`kalamzorlashtirilganligi bilan ham belgilanadi. Ko`chalar cheti, yurish aholi punktlarining ko`kalamzorlashtirilganligi, katta-kichik dam olish bog`larining cho`milish uchun suv havzalarining atrofi hamma tomondan qulay bo`lishi aynan bu erdagi yashil o`simliklarning turi, miqdori, sifatiiga juda bog`liqdir. Shahar barpo etilgan joylarda mabodo suv tanqisligi sezilsa yoki tabiiy suv havzalari bo`lmasa, u holda suv bilan ta`minlash choralari ko`riladi. Bu maqsadda sun`iy suv havzalari, ya`ni ko`llar, suv omborlari, kanallar va kichik-kichik irrigatsiya shoxobchalari, favvoralar va boshqalar tashkil qilinadi, ular shahar iqlimining mayin, yoqimli bo`lishiga yordam beradi. Ayniqsa tabiiy o`simliklar, daraxtzorlar, o`tloqlar, maysazorlar turar-joylar iqlimini mayin qiladi. Aholini tabiat bilan bog`lab, ularning asabini mustahkamlaydi, tabiat qo`ynida dam olishga imkon tug`diradi.

Kalit so`zlar: yashil o`simliklar, dendrologiya, seliteb, manzarali daraxtlar, o`simliklar toifalari, funksional mintaqalar.

ОСНОВНЫЕ ПОДХОДЫ К ОЗЕЛЕНЕНИЮ РАЙОНА СЕЛИТЕБ

¹Искандаров Азиз Бахромович <https://orcid.org/0000-0001-7386-6620>

²Хайитова Шахноза Инатуллаевна <https://orcid.org/0009-0003-7637-7832>

¹Central Asian Medical University, Республика Узбекистан, город Фергана, ул. Бурхониддина Маргилани, телефон 998(95) 485-00-70 E-mail info@camuf.uz

²Ташкентская Медицинская Академия, Термезский филиал, Республика Узбекистан, город Темиз, улица Ислама Каримова, 64, телефон 998(55) 452-55-86 E-mail info@ttatf.uz

✓ *Резюме*

Привлекательность городов определяется не только зданиями и архитектурными ансамблями в нем, но и зеленью территории. От вида, количества и качества зеленых растений зависит озеленение обочин улиц, прогулочных поселков, удобство прудов для купания в больших и малых парках. При недостатке воды или отсутствии естественных водоемов в местах строительства города принимаются меры по обеспечению водой. С этой целью организуются искусственные водоемы — озера, водохранилища, каналы и небольшие оросительные станции, фонтаны и т. д., которые помогают сделать климат города мягким и приятным. Особенно смягчают климат жилых территорий природные растения, деревья, луга, газоны. Он соединяет жителей с природой, укрепляет нервы и позволяет отдохнуть на лоне природы.

Ключевые слова: зеленые растения, дендрология, селитеб, декоративные деревья, категории растений, функциональные районы.

MAIN APPROACHES TO GREENING THE SELITEB AREA

¹Iskandarov Aziz Baxromovich <https://orcid.org/0000-0001-7386-6620>
²Xayitova Shaxnoza Inatullayevna <https://orcid.org/0009-0003-7637-7832>

¹Central Asian Medical University, Republic of Uzbekistan, Fergana city, Burhoniddin Margilani str., phone 998(95) 485-00-70 E-mail info@camuf.uz

²Tashkent Medical Academy, Termez branch, Republic of Uzbekistan, Temiz city, street Islama Karimova 64, phone 998(55) 452-55-86 E-mail info@ttatf.uz

✓ *Resume*

The attractiveness of cities is determined not only by the buildings and architectural ensembles in it, but also by the greenery of the territory. The greening of the street edges, walking settlements, and the convenience of bathing ponds in large and small parks depends on the type, quantity, and quality of green plants. If there is a shortage of water or there are no natural water bodies in the places where the city is built, measures are taken to provide water. For this purpose, artificial water bodies, i.e. lakes, reservoirs, canals and small irrigation stations, fountains, etc. are organized, which help to make the city climate mild and pleasant. Especially natural plants, trees, meadows, lawns soften the climate of residential areas. It connects residents with nature, strengthens their nerves, and allows them to relax in the heart of nature.

Keywords: green plants, dendrology, seliteb, ornamental trees, categories of plants, functional regions.

Dolzarbligi

Shaharni toza havo bilan ta'minlash, uni gaz va changlardan ifloslanishining oldini oladi. Modomiki shunday ekan, yangi shaharlar barpo etilganda va eskilari qaytadan qurilganda ularning tabiiy holatini saqlash va yangidan daraxtzor o'rmonlar, maysazorlar, suv havzalarini yaratish uchun loyihalarda oldindan tadbir va choralar ko'rishni ko'zda tutish kerak bo'ladi. O'simlik va daraxtlarning sanitariya va gigiyena jihatidan ahamiyati shundaki, ular uchuvchan organik birikmalarni havoga ajratib chiqaradi. Bu moddalar turli mikroorganizmlarni qirib tashlab, atmosfera havosini tozalaydi. Bular fitonsidlar deb ataladi. Fitonsidlar mikroblarni o'ldiradi yoki ularning o'sishini pasaytiradi. Oq qayin, akatsiya, terak, eman, tol kabi daraxtlar havodagi engil ion konsentratsiyasining oshishiga katta yordam beradi. Mikroblarni yo'qotishga yana o'simliklardan sarimsoq piyoz katta yordam beradi. Fitonsidlar miqdori faslga qarab o'zgarib turadi. Yoz va bahorda ular ko'p miqdorda ajralib havoni mikroorganizmlardan tozalashga yordam beradi [1, 2].

Daraxtlarning shovqin darajasini kamaytirishdagi roli ham katta. Mualliflarning fikricha, ko'chalarda o'sadigan oq akatsiya, archa, qarag'ay, teraklar shahar shovqinini 4,2 Db ga, ko'cha chetida o'sadigan 250 m ichkariroqda o'sadiganlari esa 17,5 Db gacha kamaytirishi mumkin ekan [3].

Daraxt qancha zich ekilsa, shovqin shuncha kamayadi. Masalan, 3-4 qator qilib ekilgan daraxt shovqinni 10 dB ga kamaytiradi. Demak, sanitariya organi xodimlari shahar loyahasiga xulosa yozayotgan vaqtda mazkur masalalarga ham e'tibor berishlari kerak. Shahar atrofini ko'kalamzorlashtirish, u erda istirohat bog'lari va hiyobonlar barpo etish birinchidan shahar havosini ifloslanishdan saqlaydi, ikkinchidan aholining dam olishida katta ahamiyatga ega. Bunday yashil zonalar shaharni aylanma qilib o'rab olgan bo'lishi yoki ma'lum yo'nalishda (5X10-25 km) bo'lgani maqsadga muvofiq (Masalan, Kiyev, Sankt-Peterburg, Moskva, Novosibirsk shaharlaridagi o'rmonlar shular jumlasidandir). O'rta Osiyo shaharlarida o'rmonlar kam yoki mavjud bo'lmaydi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xorazm kabi shaharlar shular jumlasidandir) [4,5].

Moskva shahri atrofidagi yashil zonalar radiusi 50 km, Sankt-Peterburg atrofi 70 km, Kiyevda 40-70, Xarkovda 32-66 km ni tashkil etadi. Yashil zonalar - hiyobonlar, mevazorlar, ko'chatxonalar va himoya uchun ekilgan qator-qator daraxtlar, birinchidan, turar-joylar havosini tozalaydi, ikkinchidan shahar iqlimini yaxshilab, hududni qattiq shamoldan asraydi. Shahar atrofida joylashgan meva va sabzavot ishlab chiqarish xo'jaliklari aholini yangi mahsulot bilan ta'minlab turadi. Shahar chekkasida joylashgan yashil zonalar kishilarning dam olishi va hordiq chiqarishi uchun xizmat qiladi. U erga dam olish uylari, pansionatlar va boshqalar quriladi [6].

Ko'kalamzorlashtirish shaharlar muhitini yanada ijobiy tomonga o'zgartirishga imkon beradi. Daraxtlar va butalar havo haroratini pasaytiradi va insonlarning salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi aholisining 50,9% qismi shaharlarda istiqomat qiladi. Shaharlardagi yashil maydonlar – parklar, hiyobonlar, skverlar, o'yin maydonlari sport, dam olish va jamoat tadbirlarini o'tkazishga mo'ljallangan asosiy hududlardir [7,8].

Tadqiqotning maqsadi. Termiz shahrining aholi turar joy mintaqalarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun asosiy yondoshuvlarni ishlab chiqish.

Material va usullar

Tadqiqot ob'yekti bo'lib, Termiz shahrini ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llaniladigan daraxtlarning yangi turlari bo'lib hisoblanadi. Shaharda daraxtlarni ekishning inventarizatsiyasida o'simliklar umumiy gabitusi bo'yicha baholandi, ya'ni bunda ularning balandligi, ularning shoxlanishi, gullashi, mevalari, ekish usuli va ularda shikastlanishlarning mavjudligi baholandi.

Natijalar va tahlillar

Aholi turar joy mintaqalarini ko'kalamzorlashtirish uchun tanlab olinadigan yashil o'simliklar asosan I va II toifa istiqbolli o'simliklari qatoriga kiradi. Ularni parvarishlash esa o'ziga xos bo'lgan maxsus talablarga egadir. Ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llanilishi rejalashtirilayotgan bu o'simliklarni ekish uchun er maydoni, tuproq sifati, er osti suvlarini joylashgan o'rni, atrofda yirik sanoat korxonalarining mavjudligi muxim ahamiyatga ega. Seliteb mintaqani ko'kalamzorlashtirish uchun asosan Acer negundo, Acer ginnala, Cotoneaster lucidus, Fraxinus pensylvanica, Juglans mandshurica turlariga ta'luqli bo'lgan manzarali daraxtlardan foydalanilmoqda. Ko'kalamzorlashtirilgan hududdagi daraxtlarni uzoq muddat mavjud bo'lishida ularni o'z vaqtida sug'orish va qurigan shoxlarini kesib tashlash hisoblanadi. Ko'chalar chetidagi daraxtlar esa o'z vaqtida sug'orilmaydi, keraksiz shoxlarni o'z vaqtida kesish ishlari olib borilmaydi yoki noto'g'ri olib boriladi.

Xulosa

Aholi turar joy mintaqasida yashil o'simliklarni to'g'ri joylashtirish uchun quyidagilarga: hududni ko'kalamzorlashtirishning dendrologik rejasini tuzish; tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini aniqlash; yer osti suvlarining chuqurligi va uni sifat darajasini tekshirish; o'simliklarning har bir turini biologik talablarini hisobga olgan holda ularni ekish uchun joyini to'g'ri tanlab olishga e'tibor berish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шулепова О. В., Санникова Н. В., Ковалева О. В. Озеленение и благоустройство городских территорий (на примере города Тюмени) // Перспективные разработки и прорывные технологии в АПК. 2020;82-85.
2. Мягкова Е. К., Рязанов Г. С. Озеленение и благоустройство территории близ учебных учреждений на примере Мичуринского ГАУ // Современные проблемы развития техники, экономики и общества. 2017;135-137.
3. Коростелева Н. В. Освоение овражных территорий крупных городов под объекты озеленения как способ улучшения благоустройства территории на примере г. Волгограда // Вестник Волгоградского Государственного Архитектурно-Строительного Университета. Серия: Строительство и Архитектура. 2016;46:65.
4. Уфимсева Е. В., Подопрigора Ю. В., Меркулева Ю. А. Оценка развития сферы благоустройства территории с учетом пересекающегося взаимодействия инфраструктур городского хозяйства // Региональная экономика: теория и практика. 2015;33(408):51-64.
5. Максимовская А. А. Роль управления благоустройством в развитии территории // Символ науки. 2017;5:201-203.
6. Биялт В.С. Обзор зарубежного опыта управления сферой благоустройства и озеленения территорий // Символ науки. 2020;11:51-54.
7. Самарская В.В., Фрелих А.Н., Чесноков Н.Н. Принципы озеленения городских территорий // Наука и Образование. 2019;2:4.
8. Коноплин М. А. Организация использования и благоустройства территории населенного пункта на примере села Исетское Исетского района Тюменской области // Интернационал агрикультурал журнал. 2022;5:10.

Qabul qilingan sana 20.11.2023